

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

“KELISHILGAN”

Oliy va o‘rta maxsus
ta‘lim vazirligi:

“ ” 2021 yil

“TASDIQLAYMAN”

Samarqand davlat universiteti
rektori:
prof. R.I. Xalmuradov



2021 yil

**5A120302 - TARIX (YO‘NALISHLAR VA FAOLIYAT TURI BO‘YICHA)
MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGIGA
KIRISH SINOVLARI UCHUN
MAXSUS FANLARDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Samarqand - 2021

Annotatsiya

Dastur 5A120302 - Tarix (yoʻnalishlar va faoliyat turi boʻyicha), magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar uchun 5120300-Tarix (jahon mamlakatlari boʻyicha) taʼlim yoʻnalishining 2017-2018 oʻquv yilida tasdiqlangan oʻquv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzilgan.

Tuzuvchilar:

Ergashev B.E.	SamDU «Tarixshunoslik va manbashunoslik» kafedrası dotsenti, tarix fanlari doktori.
Gʻafforov Sh.S.	SamDU “Oʻzbekiston tarixi” kafedrası professori, tarix fanlari doktori.
Gʻoyibov B.S.	SamDU “Oʻzbekiston tarixi” kafedrası dotsenti, tarix fanlari doktori
Normurodova G.B.	SamDU “Oʻzbekiston tarixi” kafedrası dotsenti, tarix fanlari doktori.
Raxmatullaev M.R.	SamDU “Jahon tarixi” kafedrası dotsenti, tarix fanlari nomzodi.
Xashimova M.M.	SamDU “Jahon tarixi” kafedrası dotsenti, tarix fanlari nomzodi.
T.Maxmudov	SamDU «Tarixshunoslik va manbashunoslik» kafedrası katta oʻqituvchisi.

Dastur Tarix fakultetining 2021 yil 28 iyundagi 10-sonli kengash yig'ilishida, Universitet kengashining 2021 yil 30 iyundagi 11-son yig'ilishida muhokama etilgan va tavsiya etilgan.

KIRISH

5120300 – Tarix (mamlakatlari va yo'nalishlar bo'yicha) bakalvriat ta'lim yo'nalishi-fan va gumanitar yo'nalish bo'lib, u Tarix, xususan O'zbekiston tarixi, Jaxon tarixi, Tarixshunoslik va manbashunoslik sohasiga tegishli fanlarni o'rganish, amaliy faoliyatlarda mutahkamlash va undan oqilona foydalanishga, soha istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikma, fanga oid tadqiqotlar usullari, metodlari va uslublarning majmuasini qamrab oladi.

Ta'lim yo'nalishi negizidagi mutaxassisliklarning vazifasi - talabalar bilimlarini chuqurlashtirish va O'rta Osiyo hududida ilk va o'rta asrlarda o'zbek davlatchiligi, uning shakllanish tarixi, sulolalar, savdo va hunarmandchilik, tashqi siyosat, Rossiya imperiyasi va sovet mustamlaka siyosati davrida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-madaniy, siyosiy tarixi, shuni-ngdek O'zbekistonning mustaqillikni qo'lga kiritishi, iqtisodiy islohatlar va uning ijtimoiy yo'nalishlari ma'naviy yangilanishlarni bilmoq Vatan tarixini chuqur bilishga, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko'maklashadi. O'zbek davlatchiligi tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy rivojlanish, hamda mustaqil O'zbekiston taraqqiyoti bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lish talabalarning dunyoqarashini kengaytirish yo'lidagi eng samarali vosita sifatida ahamiyatlidir. Qolaversa, mamlakatimiz hamkorlik qilayotgan davlatlarning rivojlanish darajasini, xalqlarning mentaliteti, urf-odatlarini, madaniyatini tushunib yetish uchun ham ushbu dasturning ahamiyati katta.

Shuningdek, Mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga har tomonlama integratsiyasini chuqurlashtirish kabi dolzarb masalani horijiy mamlaqatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotini tarixiy nuqtai nazardan o'rganmasdan hal etib bo'lmaydi. Jahon tarixini va jumladan Qadimgi sharq tarixi, (Qadimgi Misr, Messopotamiya, Kichik Osiyo, Hindiston, Xitoy), Qadimgi Yunon-Rim tarixi, O'rta asrlar, Yangi tarix (Osiyo va Afrika, Yevropa va Amerika mamlakatlari yangi davrda), Eng yangi tarix rivojlanishini mukammal darajada bilmoq insoniyat sivilizatsiyasining yutuqlaridan va tajribasidan to'la bahramand qiladi, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko'maklashadi va dunyo miqyosida mavjud bo'lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topishga imkoniyat yaratadi. Dunyo mamlaqatlarining tarixiy taraqqiyoti bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lish talabalarning dunyoqarashini kengaytirish yo'lidagi eng samarali vosita sifatida ahamiyatlidir. Qolaversa, mamlakatimiz hamkorlik qilayotgan davlatlarning rivojlanish darajasini, xalqlarning mentaliteti, urf-odatlarini, madaniyatini tushunib yetish uchun ham ushbu dasturning ahamiyati katta.

Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqotlar usullari (Osiyo va Yevropa mamlakatlari bo'yicha) fani bo'yicha magistraturaga kirish sinovi uchun mo'ljallangan bo'lib, unda qo'yilgan masalalar ta'limning oldingi bosqichlarida mazkur mutaxassislikka doir o'qitilgan fanlarning o'quv dasturlariga asoslangan.

Dasturda, tarixiy manbashunoslikning maqsad vazifalari, tadqiqot usulari, O'rta Osiyo va O'zbekiston tarixini yoritib beruvchi qadimgi davrdan hozirgi kungacha bo'lgan tarixiy manbalarning o'rganilishi, Tarix fanining vujudga kelishi va o'tmishni o'rganishdagi dastlabki malakalar hamda tarixni o'rganishda asos bo'luvchi manbalar haqida tushuncha beradi. Shu qatorda, Tarixiy manbalar va tarixiy xujjatlar bilan ishlash, tarixning boshqa fanlar bilan o'zaro munosabatlari- ijtimoiy va gumanitar fan davriy jarayoni haqida, arab, fors, tilidagi qo'lyozmalar, manbalar va ularning tarix fanining rivojlanishidagi o'rni masalarini o'z ichga olgan. Shuningdek, tarixshunoslikning dolzarb muammolari: nazariy-metodologik masalalarni ishlab chiqish, tarixshunoslik fani rivojlanishi muammolari, XX asr boshlarida tarix fani rivojining ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy- madaniy shart-sharoitlari, maxsus va yordamchi tarix fanlarining rivojlanishi hamda O'zbekistonda tarixshunoslik tadqiqotlari rivojlanishining asosiy tamoyillari kabi masalalar qamrab olingan.

5A120302 - Tarix (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi magistratura mutaxassisligiga kiruvchi talabalar uchun ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga asosan ixtisoslik fanlari bo'yicha: O'zbekiston tarixi, Jaxon tarixi, Manbashunoslik, Tarixshunoslik fanlaridan test savollari shakllantirilgan. Bu fanlar o'z negizida qamrab olingan ma'lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

“O‘ZBEKISTON TARIXI” fani bo‘yicha

O'zbekiston tarixining fan sifatidagi o'rni. Uning predmeti va o'rganish ob'ekti. O'zbekiston tarixini o'rganishning metodologik tamoyillari, uning jahon tarixi bilan bog'liqligi. Tarixni o'rganishda insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy istiqlol g'oyasiga asoslanish tamoyillari. I.A.Karimovning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» asarida hozirgi kunda O'zbekiston tarixining yechilishi zarur bo'lgan muammolarining ko'tarilishi. O'zbekiston tarixini davrlashtirish, uni o'rganishda moddiy va yozma manbalarning o'rni va ahamiyati. O'zbekiston umumjahon sivilizatsiyasi o'choqlaridan biri. O'zbekiston tarixining har tomonlama yetuk, milliy istiqlol g'oyasi bilan ko'rollangan insonlarni tarbiyalashdagi ahamiyati. Insoniyatning dastlabki ajdodlari, ularning makonlari. Odamzod paydo bo'lishi masalasining fanda o'rganilishi. Eng qadimgi odamlarning turmush tarzi, mashg'ulotlari. Ibtidoiy jamiyatning davrlari. Paleolit davri va uning o'zlashtirilishi. Urug'chilik jamoasi - ona urug'i jamoasining shakllanishi va uning taraqqiyoti. Mezolit davri makonlari. O'q yoyning ixtiro qilinishi. Neolit davri yodgorliklari. Mehnatning dastlabki yirik taqsimoti, chorvachilik va dehqonchilikning shakllanishi. Neolit davrida hunarmandchilik sohalarining rivojlanishi. Eneolit davri. Sarazm va Zamonbobo madaniyati. Bronza davrining xususiyatlari va asosiy yodgorliklari. Bronza davrida hozirgi O'zbekiston

hududlarida o'troq dehqonchilik va ixtisoslashgan hunarmandchilik. Patriarxal va ota urug'i munosabatlarining yuzaga kelishi. Ibtidoiy tasviriy san'atning paydo bo'lishi.

Davlatchilik tushunchasi. Jahonda ilk davlatlar paydo bo'lishining asosiy omillari. «Avesto» kitobida qadimiy davlatchilik tariximizga oid ma'lumotlar. O'lkamiz hududlarida dastlabki shaharsozlik madaniyatining shakllanishi. Qadimgi Baqtriya, uning o'zbek davlatchiligining shakllantirishdagi o'rni. Qadimgi Baqtriya davlatining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti. Qadimgi Xorazm haqidagi yozma va arxeologik ma'lumotlar. Qadimgi So'g'diyonaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti.

Ahamoniylar davlatining paydo bo'lishi va ularning O'rta Osiyo davlatlarini bosib olishi. Mahalliy aholining Ahamoniylar bosqinchiligiga qarshi ozodlik uchun kurashi. Ahmoniylar davrida O'rta Osiyodagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot. Yunon-Makedon qo'shinlarining Iskandar Zulqarnayn boshchiligida O'rta Osiyoga yurishi. Spitamen boshliq xalq qasoskorlarining jasoratlari. «Avesto»-zardushtiylik dinining muqaddas kitobi. Navro'z bayramining shakllanishi. Iskandar imperiyasining parchalanishi.

Salavkiylar sulolasi. Baqtriya davlatining yunonlar boshqaruvi davridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti. Ellinizm madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari va uning Markaziy Osiyoga yoyilishi. Farg'ona vodiysida ilk davlat tuzilmasining shakllanishi. Dovan davlati. Kushonlar sulolasining siyosiy hokimiyatni egallashi. Qang' davlatining paydo bo'lishi va uning o'zbek davlatchiligi tarixida to'tgan o'rni.

Kushonlar davrida mamlakatimizning siyosiy va iqtisodiy hayoti. Kushonlar davrida madaniy hayot. Urug', qabila, elat, xalq va millat tushunchalari. Parfiya davlatining ijtimoiy iqtisodiy hayoti, Turon zaminida turkiy qavmlarning azaliy etnos ekanligi. Hozirgi o'zbek xalkining etnik asosini tashkil qilgan qabila, ellatlar. Chet ellik bosqinchilar mamlakatimiz tub joy aholisi irsiyatini o'zgartira olmaganligi. Ilk o'rta asrlardagi etnik - madaniy jarayonlar. Turkiy elatlar va eroniy tilli aholi o'rtasidagi etnik va madaniy munosabatlar. O'zbekiston hududlarida to'rkiy til va etnik ustunlik vaziyatining yuzaga kela boshlashi.

IX-XII asrlarda qarluqlar, o'g'uzlar, qipchokqar, chig'illar va boshqa turkiy qavmlarning o'zbek xalqining etnik shakllanishidagi o'rni. Eski o'zbek tiliga asos bo'lgan qarluq-chig'il lahjasining rivojlanishi va yozma adabiy til darajasiga ko'tarilishi. Yusuf Xos Xojibning «Kutadg'u bilig», Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'otit turk», Xo'ja Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar» asarlarining ahamiyati. Xorazm Ma'mun Akademiyasi va uning faoliyati, XV asr oxiri - XVI asrlarda O'rta Osiyoga Dashti Qipchoq elatlarining kirib kelishi, «O'zbek» atamasining kelib chiqishi. Sovet istibdodi davrida O'rta Osiyoda «milliy davlat» chegaralashining o'tkazilishi va uning oqibatlari. O'zbekistonning milliy mustaqillik davridagi etnik holati va bu sohadagi ijobiy o'zgarishlar.

Eng qadimgi davrlarda paydo bo'lgan millatlararo yo'llar. Buyuk ipak yo'lining shakllanish jarayoni. Ipak yo'lining rivojlanishida Samarqandning tutgan o'rni. Buyuk ipak yo'li tarmoklari. Turk xoqonligi davrida «Buyuk ipak yo'li»

ning ahamiyati. Buyuk ipak yo‘li ustidan nazorat o‘rnatish uchun hukmdorlar o‘rtasidagi kurashlar. Ipak yo‘li mamlakatlararo siyosiy, diplomatik, madaniy, diniy aloqalarni ta‘minlovchi omil sifatida. Amir Temur davrida Buyuk ipak yo‘lining qayta tiklanishi va rivojlanishi. Ipak yo‘li Shark bilan G‘arbni bog‘lovchi halqa sifatida. Jahondagi buyuk geografik kashfiyotlar natijasida Buyuk ipak yo‘li mavkeining pasayishi. YUNESKO rahnamoligida «Buyuk ipak yo‘li» dasto‘rining tuzilishi va uni amalga oshirishda O‘zbekistonning ishtiroki. «Yevropa - Kavkaz - Osiyo» transport yo‘lagi - TRASEKAni barpo etish masalasi.

Eftaliylar davlatining shakllanishi, uning xududiy o‘rni. Eftaliylar davrida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. Mazdak xarakatining paydo bo‘lishi va uning asosiy g‘oyalari. To‘rk hoqonligi hukronligi davrida O‘rta Osiyo. Turk xoqonligi davrida mamlakatni idora etish usuli. Mamlakatdagi iqtisodiy va madaniy hayot. Arab xalifaligining paydo bo‘lishi va uning bosqinchilik yurishlari. Yurtimizning arablar tomonidan istilo qilinishi. Islom dinining yurtimizga yoyilishi. Arab hukmdorlarining Markaziy Osiyoda yuritgan siyosati. Muqanna qo‘zg‘aloni va uning tarixiy ahamiyati.

IX asr boshlarida Movarounnaxrning siyosiy axvoli. Toxiriylar davlati. Somoniylar davlatining tashkil topishi va boshqaruv tizimi. Somoniylar davlatida yer-suv munosabatlari va soliq siyosati. Ismoil Somoniy islohotlari. Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi va ularning somoniylarga karashli viloyatlarni bosib olishi. Qoraxoniylar davlatidagi boshqaruv usuli na ijtimoiy-iqtisodiy hayot. G‘aznaviylar davlatining tashkil topishi, uning ichki va tashqi siyosati. Saljukiylar davlatining yuksalishi. Xorazmshohlar davlatining yuksalishi. Xorazmshohlar davlatining boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. IX-XII asrlarda moddiy va ma‘naviy madaniyatning yuksalishini ta‘minlagan shart-sharoitlar.

IX-XII asrlarda ilm-fan ravnaki. Al Xorazmiy, Al Farg‘oniy, Farobiy, Narshaxiy, Ibn Sino, Beruniy, Rudakiy va boshqa buyuk ajdodlarimiz ijodi. Islom dinining davlat tayanchiga aylanishi. IX-XII asrlarda turkiy va forsiy adabiyot. IX-XII asrlarda moddiy madaniyat. IX-XII asrlarda O‘rta Osiyo tarixida tasavvuf ta‘limoti va uning o‘rni.

Mugullar hujumi arafasida xorazmshohdar davlatidagi vaziyat. Chingizxon (Temuchin)ning mug‘ullarni birlashtirib kuchli davlat tuzishi. Chingizxon va Muhhammad Xorazmshoh o‘rtasidagi elchilik munosabatlari. Utror fojiasi va mugullarning Markaziy Osiyoga harbiy yurishlari. Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi jasorati. Mugullarning Buxoro va Samarkandni bosib olishi. Urganch qamali. Xorazmshoh qo‘shinlarining maglubiyati, uning sabablari. Mug‘ullar istilosining dahshatli okibatlar. Chigatoy ulusining tashkil topishi va undagi boshqaruv tartibi. Mahmud Tarobiy kuzgoloni, uning tarixiy ahamiyati. Kebekxonning ma‘muriy va pul islohotlari. Chigatoy ulusining parokandalikka uchrashi. Chigatoy ulusida madaniy hayot, XIV asr o‘rtalarida Movarounnahrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.

Amir Temo‘rning siyosiy kurash maydoniga kirib kelishi. Amir Temur hokimiyatining urnatilishi. Samarkand - Temur davlatining poytaxti. Amir Temo‘rning harbiy yurishlari. Qo‘shinning tuzilishi, Amir Temur - buyuk davlat

arbovi, mashxur sarkarda. «Temur tuzuklari» va uning ahamiyati. Amir Temur davrida saltanatni boshqarish tizimi. Amir Temur vafotidan keyin imperiyaning parchalanishi. Temuriylar davrida xo‘jalik va madaniy hayot. Movarounnahrda Ulug‘bek hukmronligi. Bu davrda Buyuk ipak yo‘lining ahamiyatining oshib borishi. Soliq siyosati, tovar – pul munosabatlari. Ulug‘bek akademiyasi, XV asrning ikkinchi yarmida temuriylar o‘rtasidagi ichki kurashlarning avj olishi. Alisher Navoiyning siyosiy va adabiy faoliyati. Temuriylar xokimiyatining inqirozga yuz tutishi, uning sabablari.

Muhammad Shayboniyxonning Movarounnahrda yurishlari va shayboniylar sulolasi hokimiyatining urnatilishi. Bobur buyuk davlat arbobi va uning olim sifatida jahon tarixidagi to‘tgan o‘rni. «Boburnoma» asari. Shayboniylar davlatida boshqaruv tizimi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot. Buxoro xoni Abdullaxon II ning mamlakatni birlashtirish va markazlashgan kuchli hokimiyatni tiklash uchun olib borgan urushlari, uning pul islohotlari, yer – suv munosatlari, suvni tejash to‘g‘risidagi qonunlari.

Buxoro xonligining tashkil topishi. Buxoro xonligi - Ashtarxoniylar sulolasi davrida. Mangitlar davrida Buxoro amirligining ijtimoiy va davlat tuzumi, yer – suv munosabatlari, soliq siyosati, sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalari. Madaniy hayot. Xiva xonligining tashkil topishi va undagi ijtimoiy- iqtisodiy, madaniy hayot. Xiva xonligining Rossiya bilan aloqaalari. Qo‘qon xonligining tashkil topishi. Qo‘qon xonligining ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti. O‘zbek xonliklarining ilg‘or Yevropa mamlakatlaridan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va texnika jihatidan orqada qolishi, uning sabablari. O‘zbek xonliklaridagi siyosiy parokandalik, o‘zaro nizo va besamar urushlar. XIX asr o‘rtalarida o‘zbek xonliklarining ijtimoiy siyosiy ahvoli va o‘zaro munosabatlari.

O‘rta Osiyo masalasida Angliya bilan Rossiya o‘rtasida raqobat. Chorizmning Markaziy Osiyoni bosib olish uchun harbiy yurishlari. Kaufmanning Buxoroga yurishi Samarqandning zabt etilishi. Kaufmanning Xiva xonligiga bosqinchilik yurishi. Buxoro amirligi va Xiva xonligining Rossiya vasallariga aylantirilishi. Chor Rossiyasi tomonidan Kuqon xonligining bosib olinishi va tugatilishi. Chorizmning ulkamizdagi mustamlakachilik siyosati. Mustamlakachilik boshqaruv tizimining urnatilishi. Chorizmning Turkistonda iqtisodiy hukmronlikni urnatish tadbirlari, temiryo‘llar qurilishi va undan ko‘zlangan maqsad. Chorizmning Turkistonda mustamlakachilikni kuchaytirishiga karatilgan madaniy va ma‘rifiy siyosati. Turkiston xalklarining chorizmning mustamlakachilik zulmiga qarshi milliy ozodlik harakatining boshlanishi, uning bosqichlari.

XX asr boshlarida Turkistonning ijtimoiy-siyosiy hayoti. Turkistonda jadidlar hharakatining yuzaga kelishi, uning bosqichlari, atoqli rahbarlari, M. Behbudiy, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Fitrat va ularning g‘oyalari, jadid maktablarining ochilishi, rus – tuzem maktablari, xayriya jamg‘armalari, teatrlar, “Padarkush” dramasi. Birinchi jahon urushining ulka hayotiga salbiy ta’siri. 1916 yilgi xalq qo‘zg‘oloni va uning xususiyati.

Rossiyada 1917 yil fevral burjua - demokratik inqilobi, uning ulkamizga ta’siri. «Shuroi Islomiya», «Shuroi Ulamo» tashkilotlarining tuzilishi va ularning

faoliyati. Turkistonda Ishchi va Askar deputatlari soveti va musulmon mehnatkashlari shurosining tuzilishi. Turkistonda sovetlar hokimiyatining urnatilishi. O'lkada musulmonlarning favqulodda IV qurultoyi. Turkiston muxtoriyatining tashkil etilishi. Sovetlar hokimiyatining iqtisodiy tadbirlari va uning oqibatlari. Farg'ona vodiysida qarshilik kursatish harakatining boshlanishi, uning mohiyati, harakatlantiruvchi kuchlari, boskichlari.

Turkiston ASSRning tuzilishi. «Harbiy kommunizm» siyosati. 1917-1920 yillarda Xiva xonligida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy vaziyat. Xiva xonligining agdarilishi. Xorazm xalk Sovet respublikasining tuzilishi. 1917-1920 yillarda Buxoro amirligi da ijtimoiy-iqtisodiy siyosiy ahvol. Kizil armiyaning Buxoroga hujumi. «Buxoro Xalq Sovet respublikasi»ning tashkil topishi. Buxoro va Xivada Sovetlar istibdodiga qarshi kurolli harakat. XX asrning 20- yillarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat. O'zbekiston SSRning tashkil topishi. Qoraqalpog'iston muxtor jumhuriyatining tashkil topishi. O'zbekistonda sanoatlashtirishi siyosati. Paxta mustaqilligiga erishish uchun kurash va uning okibatlari. qishloq xujaligini jamoalashtirish siyosati va uning og'ir okibatlari. Kuloqlashtirish siyosati va uning mudhish natijalari. XX asrning 50-60 yillarida suv inshootlarining kurilishi va bunda o'zbek xalqining mehnat jasorati.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O'zbekistonning iqtisodiy hayoti. Urushdan keyingi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotini boshqarish sohasidagi xatolar. XX asrning 50-70 yillarida utkazilgan iqtisodiy islohotlar, ularning samarasizligi. XX asrning 70-80 yillarida O'zbekiston iqtisodiyotidagi tangliklar va nuqsonlar. Paxta yakka hokimligining okibatlari ekologik holatning buzilishi. Orol fojeasi. XX asrning 50-80 yillarda O'zbekistonda ijtimoiy hayot. Madaniy inqilob tushunchasi, uning mohiyati.

XX asrning 20-30 yillarida O'zbekistonda madaniy hayot. «Hujum» harakati va uning mohiyati. XX asrning 40-80 yillarda respublikaning madaniy hayoti. Ikkinchi jahon urushidan sung Qoraqalpog'istonning ijtimoiy-iqtisodiy axvoli. SSSRda ma'muriy-buyrukbozlik, totalitar tuzumining karor topishi. Siyosiy katagon, uning boskichlari va og'ir okibatlari. Mustabid sovet tuzumi tomonidan o'zbek ziyolilarining kuvgin etilishi. Stalin vafotidan keyin shaxsga siginish okibatlarini tugatish sohasida O'zbekistonda amalga oshirilgan tadbirlar, uning barbod bo'lishi.

Ikkinchi jahon urushining boshlanishi. O'zbekistonning urush girdobiga tortilishi. O'zbekiston moddiy va ma'naviy kuchlarining fashizmga qarshi urushga safarbar etilishi. SSSRning g'arbiy viloyatlaridan sanoat korxonolari, o'quv va ilm maskanlari, madaniyat muassasalarini, kochoklarning kuchirib keltirilishi. Urush yillarida O'zbekiston sanoati va qishloq xo'jaligi. Urush yillarida O'zbekiston fan va madaniyati. O'zbekistonlik jangchilarning frontda kursatgan jasoratlari. Urush yillarida qrim- tatarlar, mesxiti turklari, chechenlar, korachoylar va boshqa xalslarning o'z vatanidan badarga qilinishi. Fashizmni tor-mor etishda O'zbekistonning munosib o'rni. O'zbekistonda Xotira va Qadrlash kuni, uning mohiyati va ahamiyati.

XX asrning 80-yillari o'rtalarida SSSRning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotida inqirozli vaziyatning yanada keskinlashuvi, mamlakat iqtisodiyotining ekstensiv rivojlanishi, suv inshootlarining qurilishi, paxta maydonlarining ko'payishi, paxta yakkahokimligining qaror topishi, ekologik vaziyatning yomonlashuvi, Orol fojeasi. «Qayta qurish» konsepsiyasining cheklanganligi, qiyinchiliklari va ziddiyatlari. «Qayta qurish» yillarida O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy xayot. «Qayta qurish» yillarida iqtisodiyotni isloh qilinishining muvaffakiyatsizlikka uchrashi, uning sabablari. O'zbekistonda Prezidentlik lavozimining ta'sis etilishi. O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi konunnini kabul qilinishi. 1991 yil avgust voqealari, SSSRning tanazzulga yuz tutishi.

Yuksak intellektual salohiyatli, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazishda mamlakat eng yangi tarixining tutgan o'rni. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda tarixiy xotiraning o'rni va saboqlari to'g'risidagi fikrlari. XXI globallashuv asrida ta'lim sohasida mazkur fanni o'qitishdagi nazariy-konseptual yondashuv va ilg'or innovasiyalar.

XX asr 80-yillari o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi inqirozli holat. Markazning O'zbekistonda amalga oshirgan qatag'on siyosati. "Paxta ishi" "O'zbek ishi" nomli kampaniyalar. Aholi turmush tarzining og'irlashuvi. Orol fojiasi. Farg'ona voqealari. 1989 yil o'rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar. Milliy manfaatlar ustuvorligining o'sib borishi. I.Karimov – O'zbekistonning Birinchi Prezidenti. Mustaqillik deklarasiyasi va uning tarixiy ahamiyati. 1991 yil avgust voqealari. GKChP. Sovet davlatining tanazzulga yuz tutishi.

Mustaqillik arafasida respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol. O'zlikni anglashga intilishning kuchayishi. Siyosiy tizimdagi o'zgarishlar. Mustaqillikning e'lon qilinishi. O'zbekiston Respublikasining tashkil etilishi. Mustaqillikning ilk davrida davlat suverenitetini mustahkamlash yo'lidagi sa'y-harakatlar. Mustaqil O'zbekiston davlatining yuzaga kelishi va mustahkamlanishida I.Karimovning tarixiy xizmatlari.

Mustaqil taraqqiyotning dastlabki bosqichidagi muammolar. O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlashi. Taraqqiyotning "O'zbek modeli" va uning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy rivojlanish strategiyasi: yangilanish va taraqqiyot yo'li. O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan strategiya asoslari. Mustaqillik – me'yoriy-huquqiy asoslarining yaratilishi. Yangi Konstitusiyaning qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. Davlat ramzlari.

Milliy davlat boshqaruvi tizimi. Mustaqil O'zbekistonda hokimiyatlar bo'linishi prinsipi. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimining shakllanishi va uning ahamiyati. Siyosiy partiyalar faoliyatidagi xususiyatlar. O'zbekistonda parlament tizimi va undagi islohotlar. Huquq-tartibot organlari va sud tizimidagi o'zgarishlar. O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning siyosiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki. Ijtimoiy-sherikchilik. O'z-o'zini

boshqaruv organlarining faoliyati va ularning jamiyatni demokratlashtirishdagi o'рни. O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Inson haq-huquqlarini ta'minlash va himoya qilish.

Iqtisodiyotni modernizasiya qilish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi, uning yo'nalishlari, bosqichlari va xususiyatlari. Bozor munosabatlariga o'tishning huquqiy asoslarining yaratilishi. Iqtisodiy islohotlarning besh tamoyilini amalga oshirish mexanizmi. Bozor infratuzilmasining shakllanishi, qishloq xo'jaligidagi islohotlar, uning vazifalari va yo'nalishlari. Sanoat, avtomobilsozlik sohasining rivojlanishi. Makroiqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishish. Jahon moliyaviy inqirozining yuzaga kelish sabablari, oqibatlari va uni O'zbekistonda bartaraf etish yo'llari. Mamlakat iqtisodiyotining modernizasiya va diversifikasiya qilinishi, bank-moliya tizimini mustahkamlash borasidagi chora-tadbirlar. Soliq tizimidagi islohotlar.

Kuchli ijtimoiy siyosat konsepsiyasining shakllanishi, bosqichlari va rivojlantirilishi. Manzilli ijtimoiy himoya tizimining yaratilishi. Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, aholini uy-joylar bilan ta'minlash, yo'l-transport muhandislik-kommunikasiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish. Nodavlat notijorat tashkilotlarining ijtimoiy himoya va manzilli ijtimoiy yordamni amalga oshirishdagi ishtiroki.

O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyati, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.

Mustaqillik yillarida ma'naviy va ma'rifiy hayot. Milliy istiqlol g'oyasi va mafkuraviy masalalar. Milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analarning qayta tiklanishi.

Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlar va tarixiy shaxslarga bo'lgan e'tibor. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ajdodlar merosi va milliy qadriyatlarni tiklash borasidagi xizmati. Tarixiy shaharlar (Buxoro, Samarqand, Marg'ilon, Qarshi, Toshkent, Xiva, Shahrisabz) yubileylarining xalqaro miqyosda keng nishonlanishi. Toshkent shahrining "Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilinishi va uning ahamiyati. Madaniyat va san'at sohasining rivojlanishi. Xalqaro ko'rik-tanlovlarning o'tkazilishi. Milliy sport turlarining rivojlantirilishi. Beshta tashabbus va uning yuksak ma'naviy madaniyatni ta'minlashdagi o'рни. O'zbekistonda millatlararo va dinlararo munosabatlardagi barqarorlikni ta'minlash borasidagi davlat siyosati.

Mustaqillik yillarida ilm-fanning rivojlanishi. Yangi jamiyat qurishda ta'lim va tarbiyaning o'рни va roli. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning qabul qilinishi. Dasturning maqsad va vazifalari, uni amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari. Ta'limning milliy modelining shakllanishi,

rivojlanishi va sohadagi muammolar. O'zbekistonda yangi avlod kadrlar tayyorlash sohasidagi o'zgarishlar. Oliy ta'lim sohasida qabul qilingan Qonunlar va ularda belgilangan vazifalar. Ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi: yutuqlar va kamchiliklar.

Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida amalga oshirilgan islohotlar. Qoraqalpog'istonda qishloq xo'jaligi sohasidagi o'zgarishlar. Ma'naviy-madaniy sohadagi yangilanishlar. Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy ta'lim tizimi va undagi islohotlar. Qoraqalpog'iston Respublikasida ekologik ahvol. Orol fojiasi. Ekologik holatni yaxshilash borasidagi davlat siyosati.

O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va uning jahon hamjamiyati tomonidan tan olinishi. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosiy aloqalarining yo'lga qo'yilishi. O'zbekiston Respublikasining BMTga a'zo bo'lishi va jahon hamjamiyatidagi o'ziga xos o'rni. O'zbekistonning MDHdagi o'rni va mavqeyining oshib borishi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalari. O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan istiqbolli hamkorliklari. Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi. O'zbekiston tashqi siyosatida Rossiya, AQSh, Xitoy mamlakatlarining o'rni.

O'zbekistonning geosiyosiy va geoiqtisodiy o'rni. O'zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash borasida olib borgan siyosati. Markaziy Osiyoda xavfsizlik masalalari, terrorizm, giyohvandlik va odam savdosiga qarshi kurashda O'zbekiston Respublikasining faolligi. O'zbekistonning ShHT bilan aloqalari. O'zbekistonning Markaziy Osiyo, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari bilan yangi strategik sherikchilik shartnomalarining imzolanishi. O'zbekiston Respublikasining faol tashqi siyosatining yangi bosqichi. O'zbekistonning mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash borasida olib borgan siyosati. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining ishlab chiqilishi, hayotga joriy etilishi va uning ahamiyati.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi va unda belgilangan ustuvor yo'nalishlar:

- Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari;
- Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari;
- Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari;
- Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari;
- Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar.

“JAHON TARIXI” fani bo‘yicha

«O‘rta asrlar tarixi»: «O‘rta asrlar» atamasining G‘arbiy Yevropa va Sharq davlatlari tarixida qo‘llanilishi. Feodalizmning mohiyati va tarixshunoslikda uning kelib chiqish masalasining o‘rganilishi. Ma‘rifatparvarlik davri tarixchilari tomonidan o‘rta asrlar tarixining o‘rganilishi. Varvar qirollari tarixining tarixshunosligi. Varvar qirolliklarining tashkil topishi. Qadimgi germanlar tarixiga oid manbalar. Qadimgi slavyanlar tarixiga oid manbalar. Ilk slavyan davlatlarining tashkil topishi. Slavyan qabilalari guruhleri va ularning joylashuv geografiyasi. «Sali va Ripuar haqiqatlari» tarixiy manba sifatida. Xlodvig davrida Franklar davlati. Karolinglar sulolasi davrida mulkiy munosabatlar va ijtimoiy tabaqalanish. Buyuk Karl imperiyasi. Imperiyaning parchalanib ketish sabablari. Sharqiy Rim imperiyasi – Vizantiyaning tashkil topishi. Vizantiya tarixi bo‘yicha manbalar. Vizantiya Yustinian I davrida. Foma Slavyanin boshchiligidagi qo‘zg‘alon. Ilk o‘rta asrlarda Vizantiyada agrar munosabatlar. Vizantiya tarixi tarixshunosligi. Komninlar. Hukmron sulolalar davrida Vizantiya tashqi siyosati. Lotin imperiyasi. Imperiyaning qulashi.

Sosoniylar davlati. Sosoniylar ichki va tashqi siyosati. Sosoniylar tarixi bo‘yicha manbalar. O‘rta asrlar Eron tarixi tarixshunosligi. Arablar tomonidan islom dinining tarqatilishi. Arab xalifaligining parchalanib ketish sabablari. Arab xalifaligi tarixi tarixshunosligi. Qadimgi Rus davlatining tashkil topishi. «Norman nazariyasi». Rus yerlarida xristianlikning qabul qilishi. Kiev Rusida ijtimoiy tabaqalanish. Rus yerlari feodal tarqoqlik davrida.

O‘rta asr Yevropa shaharlarining paydo bo‘lishi. O‘rta asrlarda savdo (XI-XV asrlar). O‘rta asrlar shaharlari tarixi tarixshunosligi. Klermon sobori va salib yurishlarining boshlanishi. Salibchilarning diniy-ritsarlik ordenlari. Salib yurishlari. Salib yurishlari tarixi bo‘yicha manbalar.

Anglo-saks qirolliklarining tashkil topishi. O‘rta asrlar Angliya tarixi bo‘yicha manbalar. Angliya Vilgelm I Bosqinchi davrida. Genrix II ning sud va harbiy islohoti. Ioann Yersizning ichki va tashqi siyosati. Angliyada parlamentning vujudga kelishi. Angliyada Uot Tayler qo‘zg‘oloni. O‘rta asrlarda Angliya tarixining tarixshunosligi. Fransiyada kapetinglar sulolasining hokimiyatga kelishi. Filipp IV davrida Fransiya. General shtatlarning chaqirilishi. Papalikning «Avinon qamali». Yuz yillik urushning boshlanish sabablari va borishi. XI-XV asrlarda Fransiyada xalq qo‘zg‘alon. Fransiyani siyosiy birlashtirishning tugallanishi. Fransiyaning o‘rta asrlar tarixshunosligi.

Germaniyada saksoniyaliklar sulolasi hukmronligining o‘rnatilishi. Otton I ning cherkov siyosati. German xalqining «Muqaddas Rim imperiyasi»ning tashkil topishi. Frankonlar, shtaufen, gabsburglar davrida Muqaddas Rim imperiyasi. Karl IV Lyuksemburgning «Oltin bullasi» va Germaniyada feodal tarqoqlikning kuchayishi.

Ispaniyaga arablar hujumi. Ispaniyada arablar madaniyati. Rekonkista harakati va bosqichlari. Pireney yarim orolida mustaqil davlatlarning tashkil

topishi. Yagona ispan davlati. Kortesar faoliyati. O'rta asrlar Ispaniya tarixining tarixshunoslikda o'rganilishi. Ilk Italiya gumanizmi. XIII-XV asrlarda Italiya shahar-davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi. Italiyada xalq qo'zg'alonlari. Ilk uyg'onish davri Italiya san'ati. O'rta asrlar Italiya tarixining tarixshunoslikda o'rganilishi. Vikinglar davri. XI-XV asrlarda Shimoliy Yevropa davlatlari.

XI-XV asrlarda Janubiy slavyan davlatlari: Bolgariya, Xorvatiya, Serbiya. XI-XV asrlarda g'arbiy slavyan davlatlari: Polsha, Chexiya. Ko'p millatli Rech Pospolitayaning tashkil topishi (Lyublin uniyasi). O'rta asrlar davrida Vengriya, Valaxiya, Moldoviya, Transilvaniya. XI-XV asrlarda Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq davlatlari. XI-XV asrlarda Yevropa madaniyati.

Buyuk geografik kashfiyotlarning boshlanish sabablari. Xristofor Kolumb. Vasko da Gama. Dunyo aylana birinchi sayohat. Buyuk geografik kashfiyotlarning tarixi bo'yicha manbalar. Germaniya Reformatsiya davrida. Martin Lyuter ta'limoti. Germaniyada 1525 yildagi dehqonlar urushi. Niderlandiya burjua inqilobi.

O'rta asr feodal jamiyati xristian dini va cherkovi. Papalikning quchayishi. Inkvizitsiya sudi. XVI-XVII asrlar boshlarida Angliya. Agrar to'ntaruv va g'ov tutish. Tyudorlar sulolasi. Angliyada reformatsiya. Robert Ket qo'zg'aloni. Angliya absolyutizmining o'ziga xos xususiyatlari. XVI asrda Angliya madaniyati. Fransiyada gugenotlar urushi. Fransiyada absolyutizmning qaror topishi. Kardinal Rishel «Siyosiy Vasiyatnomasi». Boburiylar davrida Hindiston (XVI-XVII asrlarda).

Kichik Osiyo saljuqiylar davlatining tashkil topishi. Saljuqiylar sultonligida davlat tuzimi va ijtimoiy tuzum. Ko'chmanchi turklar va mahalliy aholi o'rtasidagi munosabat. Turk xalqining shakllanishi. Iqto va timar yer egaligining rivojlanishi. Vaqf va mulk egaligi. Saljuqiylar sultonligida qullar. Saljuqiylar sultonligida qurultoylarning o'rni. Sultonlikda sud tizimi. Qizilboshlar qo'zg'oloni. Saljuqiylar sultonligining mug'ullar tomonidan bo'ysundirilishi. Mug'ullarga qarshi kurash. Jimra boshchiligidagi qo'zg'olon (1277y). Saljuqiylar sultonligining parchalanishi. Usmoniylar davlatining paydo bo'lishi. Usmoniy davlatining Bolqon yarim oroliga yurishlari. Usmoniylar davlatining boshqarish tizimi va ijtimoiy munosabatlari. Turkiyaga Amir Temur yurishlari. Sulton Murod I davrida (1421-1451) turklarining qisman o'zlarini tiklash va qaytadan harbiy yurishlarni boshlashlari. Usmoniy turklar tomonidan Konstantinopolning bosib olinishi va Vizantiyaning qulashi. Turklarning Yevropaga harbiy yurishlari. Bolqon davlatlarining turklar tomonidan istilo qilinishi. Kosova jangi. Bolgariyaga xujum. Tirnovaning olinishi. Turklar xujumiga qarshi kurash. XV-XVII asrlarda Bolqon yarim orolida turklarning harbiy feodal hukmronligi. Bolqon yarim oroliga turklarning ko'chirib keltirilishi. Turklar hukmronligi davrida Bolqon yarim oroli aholisining turli toifalari o'rtasidagi farq. Turklarning boshqaruv tizimi. Ularning xristian diniga munosabati. Turklar hukmronligi davrida yerga egalik formalari va dehqonlar ahvoli.

Karl V hukmronligi davrida iqtisodiy ziddiyatning keskinlashishi. Kostiliyada kommuneros harakati. Kommuneros harakatining magʻlubiyati va uning oqibati. XVI asrda Ispaniyaning iqtisodiy rivojlanishi. Davlat tuzumi. Ispaniyaning inqirozga uchrashi. Filipp II. XVI asr ikkinchi yarmida iqtisodiy inqiroz. Ispaniya absolyutizmi. Filipp II ning tashqi siyosati. XVII asr boshlarida Ispaniya. XVII asr birinchi yarmida Ispaniya tashqi siyosati. Portugaliyaning mustaqillik eʼlon qilishi. XVII asr birinchi yarmida xalq harakati.

Uch qirollik davrida Koreya yarim oroli. Tan bosqini va mamlakatni Sillaning xokimiyati ostiga birlashtirilishi. Sillaning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyoti. Silla madaniyati. Koreya yarim orolida Koryo davlatining tashkil topishi. Koryo davlatining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti. Koryo davlatining tashqi siyosati, Moʻgʻullar bosqini. XIV asrning ikkinchi yarmida Koryo. Koryo madaniyati. Kareyada Choson davlatining tashkil topishi.

Tayka islohotlari. Yapon jamiyati va davlati VII-X asrlarda. Yaponiyaning XI-XII asrlardagi taraqqiyotining oʻziga xos xususiyatlari. Ilk oʻrta asrlarda Yaponiya madaniyati. IX-XI asrlarda Yaponiya feodal jamiyatida ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar. Yaponiyada syogunat tizimining oʻrnatilishi. Samuraylar kelib chiqishi, tashkiliy tuzilmasi va gʻoyasi. Rivojlangan oʻrta asrlarda Yaponiyada shaharlar va savdo taraqqiyoti. XIV-XV asrlarda Yaponiyada dehqonlar norozilik harakatlari. XI-XV asrlarda Yaponiya madaniyati.

Ilk oʻrta asrlarda Xitoy. Uch podsholik davri. Xitoyda yagona Suy imperiyasining tashkil topishi. Tan imperiyasi va uning inqirozi. Besh sulola va oʻn qirollik davri. Xitoyning ilk oʻrta asrlarda tashqi siyosati va xalqaro aloqalari. Xitoyda Sun sulolasi davlatining qaror topishi va davlat tuzumi. Sun sulolasi davrida Xitoyda xalq norozilik harakatlari va islohotlar uchun kurash, uning oqibatlari. Xitoyda chjurchjenlar va moʻgʻullar bosqinchiligi. Xitoyda moʻgʻul hukmronligiga qarshi kurash va Min sulolasi hukmronligining oʻrnatilishi. Min sulolasi hukmdorlarining ichki va tashqi siyosati. Rivojlangan oʻrta asrlarda Xitoy madaniyati.

Fotimiylar davrida Shimoliy Afrika va Yaqin Sharqda ijtimoiy-siyosiy ahvol. Ayubiylar hukmronligi davrida Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq. Misr va Suriyada mamluklar davlati va uning tashqi siyosati. Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq davlatlarida davlat tuzilishi va boshqaruvidagi oʻziga xoslik. Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq feodal arab davlatlarida iqtisodiy hayot. Feodal arab davlatlari madaniyati.

“Yangi zamon davri”: Yangi tarix davrlarining oʻziga xos xususiyatlari. Yangi zamon davri tarixshunosligi. XVII asr ingliz burjua inqilobi. Styuartlar hokimiyatining tiklanishi. Angliyada 1688 yilgi «Shonli» inqilob. Angliyada agrar toʻntaruv va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Angliyada sanoat toʻntaruvi. Angliyada chartistlar harakati. Lyudovik XIV hukmronligi davrida Fransiya. Lyudovik XV davrida tashqi siyosat. XVIII asr fransuz burjua inqilobi. Fransiyada yakobinchilar hukumatining ichki va tashqi siyosati. Direktoriya va Konsullik davrida Fransiya. Napoleon Bonapartning ichki siyosati. Fransiyada Birinchi imperiyaning tashkil topishi. Birinchi imperiyaning tashqi siyosati. Vena kongressi

va uning qarorlari. «Muqaddas ittifoq» va uning kongresslari. 1848-1849 yillarda Fransiya inqilobi. Fransiyada Ikkinchi imperiyaning oʻrnatilishi. Ikkinchi imperiyaning ichki va tashqi siyosati. 1848-1849 yillarda Italiya inqilobi. 1848-1849 yillarda Avstro-Vengriya inqilobi. 1848-1849 yillar inqiloblarining tarixshunosligi. Italiyaning birlashtirilishi. Bismark hukumatining ichki siyosati. Germaniyani birlashtirilish uchun kurash. Shimoliy Germaniya ittifoqi. Kichik Germaniya rejasi. Buyuk Germaniya rejasi. Janubiy Germaniya davlatlari. Fransiya-Prussiya urushi. Uch imperator kelishuvi. Germaniya-Fransiya munosabatlari (1871-1875). Otto fon Bismark hukumatining ichki va tashqi siyosati (1876-1890). Rossiyada Pyotr I islohotlari. Yekaterina II hukmronligi davrida Rossiya. Aleksandr I ning ichki va tashqi siyosati. Aleksandr II islohotlari. XIX asr ikkinchi yarmida Rossiya tashqi siyosati. 1877-1878 yillardagi Rus-turk urushi va berlin konferensiyasi.

Uchinchi respublika davrida Fransiya. «Dreyfus ishi» va Panama mojarosi. XIX asrning oxirgi choragida Angliyaning ichki siyosati. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Angliyaning tashqi siyosati. Vilgelm II hukmronligi davrida Germaniya. Avstro-Vengriya dualistik monarxiyasi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Italiya. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida sharqiy-janubiy slavyanlar. Xitoyda taypinlar harakati. Eronda babidlar qoʻzgʻoloni. Meydzi inqilobi va Yaponiyada burjua islohotlari. Hindistonda sipohiyalar qoʻzgʻoloni. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Afgʻoniston. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Usmoniylar imperiyasi. Yevropadagi harbiy-siyosiy bloklar: Uchlar ittifoqi. Yevropadagi harbiy-siyosiy bloklar: Antanta. XIX asr oxirgi choragidagi xalqaro munosabatlar. XX asr boshlaridagi harbiy inqirozlar. «Bolqon ittifoqi»ning vujudga kelishi va Bolqon urushlari. Saraevodagi qotillik va Birinchi jahon urushining boshlanishi. Birinchi jahon urushining 1914-1916 yillardagi harbiy harakatlari. Birinchi jahon urushida 1916-1918 yillardagi harbiy harakatlar. Birinchi jahon urushining yakunlari va oqibatlari. Birinchi jahon urushining chet el tarixshunosligi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida harbiy-siyosiy ittifoqlarning tashkil topishi.

Yangi zamon davrida xalqaro munosabatlar. 30 yillik urushdan soʻng Yevropaning siyosiy xaritasi. Tashqi siyosat va diplomatiyaga doir muassasalar. Yevropa davlatlari tashqi siyosati va diplomatiyasining asosiy jihatlari. Yevropada Fransiyaning hukmronlik davri. Lyudovik XIV asrning tashqi siyosati va diplomatiyasi. Nimvegen sulhi. Franko-golland raqobati. Vilgelm Oranskiy diplomatiyasi. XVII asr ingliz burjua inqilobi va xalqaro siyosatdagi yangi munosabatlar. Angliyada «Uzoq parlament» diplomatiyasi. Kromvel va uning tarixdagi oʻrni. Yosh ingliz respublikasi (1649-1688). Tashqi siyosatdagi asosiy yoʻnalishlar. Styuartlar hukmronligining tiklanish davrida ingliz diplomatiyasi. 1688 yildagi davlat toʻntaruvining xalqaro munosabatlarga taʼsiri. XVIII asrda Angliyada siyosiy hayot. XVIII asrda Angliyada ijtimoiy hayot.

XVIII asr birinchi yarmida Rossiya diplomatiyasi. Petr I hukmronligi davrida diplomatik muassasalar va ularning faoliyati. Petr I diplomat sifatida. Ispaniya merosi uchun urush (1701-1714). Utrext sulhi. Polsha masalasi. Xalqaro munosabatlarda (1730-1735). Avstriya merosi uchun urush (1740-1748) va

diplomatiya. Avstriya-Prussiya raqobati. Fridrix II diplomatiyasi. Lyudovik XV davrida fransuz diplomatiyasi. XVIII asr birinchi yarmida Angliya tashqi siyosati. Uilyam Pitt Katta diplomatiyasi.

